Uyga xush kelibsiz!

2026 1 July

Bugun Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportining 3-terminalida o‘zgacha muhit hukm surdi! Biz O‘zbekiston milliy futbol terma jamoasini katta quvonch va g‘urur bilan kutib oldik.





Sportchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularga o‘zining samimiy minnatdorchiligini bildirish uchun sodiq muxlislar, futbolchilarning oila a’zolari va yaqinlari, OAV vakillari, shuningdek, “Uzbekistan Airways” AJ, Uzbekistan Airports va Milliy olimpiya qo‘mitasi rahbariyati yig‘ildi.


ko:zinka
26



Tantanali kutib olish marosimida ta’kidlanganidek, Hukumat va Prezidentimiz tomonidan sportga qaratilgan ulkan e’tibor va qo‘llab-quvvatlash tufayli ushbu turnir butun mamlakatimizni birlashtiruvchi voqeaga aylandi. Butun xalqimiz vaqt farqiga qaramay – tongi sahardan yarim tungacha – yigitlarimizga jon-jahdi bilan muxlislik qildi.



Ushbu hissiyotlar va tarixiy yutuq uchun sizga tashakkur aytamiz – siz ilk bor O‘zbekiston bayrog‘i ostida 2026-yilgi futbol bo‘yicha Jahon chempionatida shunday yorqin va munosib ishtirok etdingiz!



Terma jamoamiz uyga Uzbekistan Airwaysning Nyu-York – Toshkent yo‘nalishidagi HY102 muntazam aviaqatnovida qaytgani ham ramziy ma’noga ega. Eslatib o‘tamiz, biz MDH davlatlari orasida Toshkentdan Nyu-Yorkka to‘g‘ridan-to‘g‘ri transkontinental aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi yagona aviakompaniya bo‘lib qolmoqdamiz.



Uzbekistan Airways jamoasi terma jamoamizni butun qalbi bilan qo‘llab-quvvatlaydi va kelgusi turnirlarda yangi, chiroyli g‘alabalarni tilaydi!